

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI “USTOZ VA SHOGIRD UCHRASHUVI” MATNINI O‘RGATISH METODIKASI

Esanova Yulduz Jahongir qizi*Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Ustoz va shogird uchrashuvi” matnini o‘rgatish metodikasi haqida fikrlar bildirildi.*

Kalit so‘zlar: *Ustoz, shogird, tarbiya, ta‘lim, suhbat metodi, venn-diagramma, aqliy hujum, juma, o‘qituvchi, bug‘doyrang.*

“Bizni hamisha o‘ylantirib kelayotgan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarayapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablariga uyg‘oq bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning farzandlarimiz, avlodimiz degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.” [Sh. Mirziyoyev] Darhaqiqat, Muhtaram Prezidentimiz aytgan fikrlarga qo‘shimcha qilib shuni aytmoqchimizki, O‘zbekistonning qayeriga bormang rivojlanish, yangilanish bo‘lyapti. Mana shunday shart-sharoitlarning qadriga yetishimiz lozim. Kelajakda O‘zbekistonning gullab yashnashi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Qayerga bormaylik odob-axloqimizni saqlab, o‘zbekligimizni bildirib turishimiz kerak. Eng, avvalo, kimlarning farzandlari ekanligimizni unutmay ota-bobolarimizga munosib farzand bo‘lishimiz kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga 3-sinf darsligidagi “Ustoz va shogird uchrashuvi” mavzusini o‘rgatish uchun birinchi o‘rinda suhbat metodi orqali bolalarni darsga olib kirish kerak. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘tiladigan mavzuga birin-ketin kirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsga asta-sekin jalb qilish uchun eng qulay metod hisoblanadi. Suhbat metodidan tashqari o‘qib tushunishga ham o‘rgatish kerak. Qanchalik o‘qib tushunishni o‘rgansa shuncha dunyoqarashi keng bo‘adi. Eng, avvalo, bu matnning sarlavhasiga e‘tiborimizni qaratsak, “Ustoz va shogird uchrashuvi” sarlavhaga qarab ham matn haqida boshlang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lamiz. O‘quvchilarga ustoz haqida ma‘lumot berib unga ta‘riflar berishimiz kerak, shundagina o‘quvchilar matnning ichida ustoz degan so‘z kelsa ularga yanada tushunarli bo‘ladi. Masalan, ustozga ta‘rif berganda ustoz ulug‘ zot, ustozlarga qanchadan qancha rahmat aytsak ham oz, har qanday kasb o‘rganaman deysizmi, hunar o‘rganaman deysizmi hammasini ustozlar orqali o‘rganamiz. O‘quvchilar uchun eng qadrlisi har

doim savod o'rgatgan ustoz bo'lib qoladi. Chunki bolalar endigina murg'ak o'yinqaroqlikdan keyin savod o'rganish uchun qadrdon maktabga qadam qo'yishadi. Ustoz o'quvchilarga bor bilimni berib ularga bilim beradi, xat-savodini chiqaradi. O'qituvchilik kasbi juda sharaflig va mashaqqatli kasb hisoblanadi. Shuning uchun aytishadi-ku "Ustoz otangdek ulug'". Endi shogird so'ziga e'tibor qaratsak. Shogird – ustozdan ilm, kasb-hunar o'rganadigan insondir. Shogird ustozdan ilm o'rgandimi uni hech qachon unitmasligi kerak. Uni hamisha qadrlab rahmatlar aytishni unitmasligi kerak. Bir xil shogirdlar bor ustozdan ilm o'rganib oxirida unga rahmat ham aytmay ketishadi. Shuning uchun o'quvchilar sizlar har qachon ustozlardan nimanidir o'rgandingizmi ularga rahmat aytishni unutmang

Mana endi matnni o'qib boshlasak ham bo'ladi. Matnni intonatsiya bilan rollarga bo'lib o'qib besak o'quvchilarga yanada tushunarli bo'ladi. Bir kuni Qadimgi Xorazmning yetuk bir olimi Abu Nasr Mansur juda ham qiziquvchan, aqlli bir bolani uchratib qoladi. Alloma shu kundan boshlab o'ziga shogird qilib oladi. Bu bola yillar o'tib, Abu Rayhon Beruniy nomi bilan dunyoga taniladi. Ushbu oz va sozgina ma'lumot orqali o'quvchilar matn haqida ancha tushunchaga ega bo'ladi. O'quvchilarga Abu Rayhon Beruniy haqida ham ma'lumot berib ketsak bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy "Yerning Quyosh atrofida aylanishini" aytgan.

Bugun juma havo musaffo va tiniq deb boshlanayapti. Juma kuni xosiyatli va barokatli kundir. Juma kuni tug'ilgan o'g'il bolalarga Jumanazar, Juma, Jumadulla ismlari qo'yiladi. Juma kuni tug'ilgan qizlarga Jumagul, Jumaxon ismlari qo'yiladi. Juma kuni masjidlarda juma namozlari o'qiladi. Juma kuni haqida o'quvchilarga juda ko'p ma'lumot bersa bo'ladi.

Quyosh nayza bo'yi ko'tarilgan deb aytilgan gapiga ta'rif bersak. Bu gap bilan quyosh tikka turibdi ayni tush vaqti demoqchi. Quyoshning chiqishi tong deb ataladi, quyoshning tikka turishi kun yoki tush deb ataladi, quyoshning botishi kechqurun deyiladi. Ana shunday ma'lumotlarni ham berib ketsak o'quvchilarning tushunishi ancha oson bo'ladi va ularning yodidan quyosh haqidagi bergan ma'lumotlaringiz hech qachon chiqmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga biror mavzumi, matnmi tushuntirishda hayot, tabiat bilan bog'lab tushuntirsa ularning xotirasida tez qoladi. Shuning uchun aytishadi-ku, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir".

Matnda ustozning ko'rinishiga berilgan ta'rifga qarasa. Yigirma besh yoshlar chamasi o'rta bo'yli, bug'doyrang, xushqomat Abu Nasr bugun sahardan o'z yordamchilari bilan qishloq chetidagi tepalik ustida usturlop o'rnatish bilan mashg'ul. Ushbu gapda Abu Nasr ustozning bo'yi o'rta bo'yli deyilgan, tashqi ko'rinishi bug'doyrang deb aytilgan. Bug'doyrang so'zi o'quvchilar uchun notanish so'zdir. Bug'doyrang – tanasining rangi qora ham emas, oq ham emas deb o'quvchilarga aytib o'tish kerak. Bu gapda ustoz usturlob o'rnatish bilan band deb aytilgan. Mana shu vaziyatda "Aqliy hujum" metodini qo'llash mumkin. Bu so'z boshlang'ich sinf nafaqat katta yoshdagilarni ham o'ylantirib qo'yadi. Hamma o'z fikrini bayon qilgandan keyin

o‘qituvchi umumiy qilib usturlobga ta’rif beradi. Usturlob – quyosh va yulduzlarning harakatini kuzatadigan asbobdir. Bu ta’riflardan keyin Abu Nasr osmon jismlari quyosh va yulduzlarni kuzatadigan munajjim ekanligini bolalar asta-sekin tushunib boradi. Abu Nasr yordamchilari bilan usturlob o‘rnatayotgan paytda ularning oldiga qoramag‘iz yuzli, bo‘z ko‘ylak, bo‘z ishton kiygan oyoq yalang bola kelib o‘tiradi. Bolaning yuzi, ko‘zi va chehrasidan kuchli hayajon shundoqqina sezilib turadi. Ushbu matngi bu gaplarga e’tibor bersak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bir-birlarini tashqi ko‘rinishlariga ta’rif berishga o‘rgatayapti. Oldingi gapda Abu Nasr ustozning tashqi ko‘rinishiga ta’rif berilgan bo‘lsa, endi shogirdning tashqi ko‘rinishiga ta’rif berilayabdi. Shu o‘rinda ustozga va shogirdning tashqi ko‘rinishiga berilgan ta’riflarga qarab grafikli organezerlarga kiradigan Venn-diagrammasi metodidan foydalansak bo‘ladi. Venn-diagrammasi metodini o‘quvchilarga o‘rgatish kerak. Ikkita kesishgan aylana chizamiz. Birinchi aylanaga ustozga berilgan ta’riflar yoziladi. (Yigirma besh yoshlar chamasi, o‘rta bo‘yli, bug‘doyrang)

Ikkinci aylanaga shogirdga berilgan ta’riflar yoziladi. (Qoramag‘iz yuzli, bo‘z ko‘ylak, bo‘z ishton kiygan, oyoq yalang)

Ikkala aylana kesishgan joyga ikkovi uchun umumiy bo‘lgan ta’riflarni yozish kerak. (Ikkalasi ham erkak kishi, ikkalasi ham yulduz va quyoshni kuztishga qiziqadi). Mana shu metod ham o‘quvchilarning matnni o‘zlshtirishini ancha osonlashtiradi.

-Yana keldingmi? - deydi Abu Nasr uni erkalagan ovozda .

-Keldim deydi bola , - deydi hayajonini yashirmay.

-Menga yordamlashib yuborasanmi?

-Ha ustoz men nima ish qilay?

-Kel usturlob o‘rnatamiz.

-Usturlob?

-Usturlob deysizmi?

-Men bu asbob bilan quyosh va yulduzlar harakatini kuzataman.

Ustozning bu gaplari orqali bolakay uning oldiga ko‘p marotaba kelib, unga yordamlashib ketadiganga o‘xshaydi. Shunga ko‘ra bola ham Abu Nasr ustozning sohasiga qiziqadi, qiziqmaganda bola bir kelib oldiga qayta kelmas edi. Mana shu yerdagi gapda usturlob qanday asbobligi yaqqol aytilgan. Usturlob – quyosh va yulduzlarning harakatini kuzatadigan asbobdir.

Bolakay yana savol beradi.

-Usturlob bilan kunduzi yulduzlarni qanday kuzatasiz?

-Yulduzlar kunduzi ko‘rinmaydi-ku!

-Tunda kuzataman-da,- deydi Abu Nasr jilmayib.

Mana bolajonlar bu bolakayning juda ham zehni o‘tkir ekanligini berayotgan savollaridan bilib olish mumkin. Rostida kunduzi yulduzlar ko‘rinmaydi-ku? Lekin shu o‘rinda ustozning sabriga qoyil qolish kerak. Nega deganda bolakay uni savollar bilan ko‘mib tashlasa ham ustoz jilmayib javob qaytarayapti. Masalan, uyda oyilaringiz yoki

dadalaringiz ishdan charchab kelganida savol ko‘p bersalaringiz urishib beradi. Sen bolani buncha savoling ko‘p bo‘lmasa, deb aytadi, to‘g‘rimi? Shuning uchun ustozlarni har doim qadrlashimiz kerak. Ustozi quyosh va yulduzlarni kuzatayotganini ko‘rib haligi bolakay:

-Men ham kuzatsam maylimi deb so‘raydi. Ustozi sen hali kichkinasan, yoshlik qilasan, katta bo‘lganingda hammasini bilib olasan deydi. Bolakay juda qiziquvchan emasmi?

-Hozir o‘rgangim kelyapti ustoz.

-Isming nima?

-Ismim Muhammad.

-Kimning o‘g‘lisan?

-Otamning ismi Ahmad.

-O‘qishni ,yozishni bilasanmi?

-Bilaman.

Ustoz so‘raydi Muhammad sen nimaga qiziqasan?

Muhammad men har kuni yulduzlar to‘la osmonni kuzatishga qiziqaman. Ular bilan xayolan gaplashaman. Lekin ularning tilini tushunmaymanda.

-Siz ularning tilini tushunasizmi ustoz?

-Ha tushunaman.

-Menga ham o‘rgatasizmi ustoz

-Albatta o‘rgataman.

-Aldamaysizmi

-Aldamayman. Ammo bir shartim bor.

-Ayting.

Bu gaplaridan Muhammad yulduzlarni kuzatishni juda ham yoqtiradi. Kechqurunlari yulduzlarni kuzatib yotadi. Ular bilan xayolan nimalarnidir gaplashadi. Lekin aslida yulduzlar tilini tushunmaydi. Uning gaplaridan bilinib turibdiki u yulduzlar bilan xayolan emas rostakamiga gaplashmoqchi. Shuni bilinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘p narsalarga qiziqadi. O‘qituvchilar bu qiziqishlarini ota-onalar bilan hamkorlikda rivojlantirish kerak.

Ustozining sharti shundan iboratki, men bilan shaharga ketasan.

-Xo‘p. Faqatgina ota-onam rozi bo‘larmikan?

-Otangga o‘zim tushuntiraman.

O‘sha kuni kechqurun Abu Nasr qishloq chetidagi ko‘rimsizgina bir hovliga kirib bordi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘quvchi qaysi sohaga qiziqsa, ustoz qo‘lidan kelganicha to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, unga yordam berishi lozim. Ustoz bergan tanbehni to‘g‘ri qabul qilib, imkon qadar ko‘proq o‘rganishga intilish lozim. Shu o‘rinda ustoz haqida o‘qig‘bratli hikmat yodimga tushdi, “Amir Temur tig‘ bilan, Alisher Navoiy qalam bilan, ustozlar esa bori bilan butun dunyoni egallagan”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. “Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi”. Toshkent, “Innovatsion – ziyo”, 2022.
3. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. Darslik. 4-sinf uchun. Toshkent- 2020
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 3-sinf uchun. K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.-144 b.
5. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism. Darslik. 3-sinf uchun. K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.-144 b